


EKSPERTIZA O'TKAZISH BO'YICHA
07/2022-sonli shartnoma



Namangan shahar

7 yanvar 2022 yil.

"Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" davlat unitar korxonasi Namangan viloyati filiali (keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 7 yanvardagi 14/04-04 - sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi direktor A.Isakdjanov bir tomondan va «To'raqo'rg'on neft bazasi» MCHJ (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori Sh. Fayziyev ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzishdi:

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq buyurtmachining topshirig'i bilan bajaruvchi "To'raqo'rg'on neft bazasi MCHJ ishchi va xizmatchilar ovqatlanish oshxona binosini qayta qurish ishlari" smeta xujjatlarini ekspertizadan o'tkazishni, buyurtmachi esa ushbu ishlar uchun haq to'lash majburiyatlarini oladilar.

1.2. Ekspertizadan o'tkazish muddati: buyurtmachi tomonidan bajaruvchining hisob raqamiga mazkur shartnomaning 2.2. bandiga muvofiq oldindan to'lov tartibida pul mablag'i o'tkazilganidan so'ng 30 ish kuni mobaynida. Ushbu davrda bajaruvchi yig'ma ijobiy yoki bajaruvchi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda salbiy ekspert xulosa beradi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazishga asos: buyurtmachining 27 dekabr 2021 yildagi 29409-sonli murojaati.

1.4. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi: yig'ma ekspert xulosa.

1.5. Bajaruvchi mustaqil ravishda hamda uchinchi shahslarni jalb etish bilan buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

II. XIZMAT XAQI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

2.1. Loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning shartnomaviy narxlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-son qarorining 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Shartnoma qiymatining hisob-kitobi:

$$270\,000 * 3 = 810\,000 + 15\% \text{ QQS}$$

Jami to'lovga: 931 500 (to'qqiz yuz o'ttiz bir ming besh yuz) so'm, shu jumladan QQS 15% 121 500 (bir yuz yigirma bir ming besh yuz) so'm.

2.2. Buyurtmachi tomonidan bajaruvchiga shartnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) bank kuni davomida oldindan to'lov tartibida shartnomaviy umumiy qiymatining 30 foiz miqdorini to'lanadi, qolgan 70 foiz miqdori bajarilgan ishlar hisob-fakturasi imzolanganidan so'ng 10 (o'n) bank kuni ichida to'lanadi.

2.3. Buyurtmachi tomonidan hisob-faktura imzolanmasa va/yoki ushbu xujjatlar qaytarib berilmagan taqdirda, agar ushbu xujjatlarni taqdim etilgan paytdan etiboran 10 kalendar kun ichida imzolashga asosli rad etilmasa, hisob-faktura qabul qilingan hamda xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

2.4. Shartnoma majburiyatlari bekor qilinganda, shartnomaviy hujjatlar (bajaruvchining nusxalari) hamda qayta ishlashga va takomillashtirishga qaytarilgan loyiha materiallari taqdim etilmaganda, bajarilgan ish hajmidan qat'iy nazar to'langan mablag'lar qaytarilmaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bajaruvchi taqdim etilgan loyiha xujjatlarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy xujjatlariga muvofiq ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi;

3.2. Buyurtmachi mazkur shartnoma yuzasidan quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) Bajaruvchiga ekspertizadan o'tkazish uchun zaruriy tegishli hujjatlarni o'z vaqtida to'liq taqdim etish;

b) ekspertizadan o'tkazish xizmati haqini o'z muddatida shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq to'lovni amalga oshirish;

v) ekspertiza xulosasini olish bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish. Hujjatlar olib ketilmagan taqdirda Bajaruvchi ularning saqlanishi uchun javob bermaydi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI

4.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga bajarilgan ishlar uchun to'lovning kechiktirilgan har bir kuni uchun shartnoma bahosining 0,4% miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga ekspertizadan o'tkazish ishlarini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma bahosining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiy miqdori shartnoma bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.3. Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bajarilishi yuzasidan tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchilik muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

4.5. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, kelishmovchiliklarni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda Namangan shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

V. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

5.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo'l qo'yiladi.

5.3. Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan bahosini to'liq to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga hakli, shartnoma Bajaruvchining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.4. Bajaruvchi ushbu shartnoma bekor qilinishi tufayli Buyurtmachiga yetkazilgan zararining hammasini to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga hakli, shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.

5.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 3 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

VI FORS-MAJOR

6.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Fors-major holatlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya, avariya hamda boshqa omillar va holatlar, bunday holda majburiyatlarni bajarish muddatlari fors-major holatining davom etish muddatiga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

6.2. Ikkala taraf mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiluvchi fors-major holatlarining boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida bir-birlarini zudlik bilan xabardor qilishlari lozim.

6.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Shartnoma tomonlar imzolaganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi. Shartnomani imzolash sanasi muqaddimada ko'rsatiladi.

7.2. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nusxadan beriladi.

Tomonlarning manzillari va rekvizitlari:

Bajaruvchi:

"Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" DUK

Namangan viloyati filiali

Manzil: Namangan sh. A.Temur - 105

X/R: 2020 8000 1008 8257 3005


STIR: 305 550 214

Bank: ATB Turon bank Namangan filiali

MFO: 00226 OKED: 71110

Telefon: 69 233-02-50

Direktor



A. Isakdjanov

Buyurtmachi:

«To'raqo'rg'on neft bazasi» MCHJ

Manzil: To'raqo'rg'on tumani Oqtosh MFY, Bobur, 2

X/R: 20210000204267762001

STIR: 204585174


Bank: "O'ZSANOATQURILISHBANKI" ATB

Namangan mintaqaviy filiali

MFO: 00224 OKED: _____

Telefon: +998694410128

Direktor



Sh. Fayziyev

to'be r. l. g. b.



СВИДЕТЕЛЬСТВО

О государственной регистрации юридического лица (субъекта предпринимательства)

Настоящим подтверждается, что в Единый государственный реестр субъектов предпринимательства внесена запись о создании:

Государственное унитарное предприятие "SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI"

(Полное наименование юридического лица – субъекта предпринимательства с указанием организационно-правовой формы)

ГУП "SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI"

(Сокращенное наименование юридического лица)

16.05.2018

(Число, месяц (прописью), год)

За регистрационным номером: 608890

Идентификационный номер налогоплательщика (ИНН): 305550214

Организационно-правовая форма:

Государственное унитарное предприятие


Местонахождение:

город Ташкент, Шайхантахурский район, ABAY KO CHASI, 6-UY,

Свидетельство выдано:

город Ташкент, Шайхантахурский район, ЦЕНТР ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ

(Полное наименование регистрирующего органа)



326050002375

13.11.2018



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ДАВЛАТ СОЛИҚ ҚЎМИТАСИ**

**ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ ТЎЛОВЧИСИ СИФАТИДА
РЎЙХАТДАН ЎТГАНЛИК ТЎҒРИСИДА**

ГУВОҲНОМА

Ушбу Гувоҳнома қўшилган қиймат солиғи тўловчиси сифатида
рўйхатдан ўтганлигини ҳамда рўйхатдан ўтиш коди берилганлигини
тасдиқлайди.

СОЛИҚ ТЎЛОВЧИ НОМИ:

SHAHARSOZLIK Hujjatlari EK

СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИЯ РАҚАМИ:

305550214

ПОЧТА МАНЗИЛИ:

АВАУ КО'CHASI, 6-UY

РЎЙХАТДАН ЎТИШ КОДИ:

326050002278

РЎЙХАТДАН ЎТИШ САНАСИ:

13.11.2018